

# ISHSIZLIK DARAJASI, UNING TURLARI VA UNI BARQARORLASHTIRISHNING YO`LLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11401536>

**Yuldashev Rustambek Xamro o'g'li**  
**Jumaniyazov Inomjon Turayevich**  
*Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ishsizlik turlari va ishsizlik davlat iqtisodiyotiga qay darajada ta'sir qilish haqida ma'lumotlar Ihsizlikni keltirib chiqaruvchi omillar va bartaraf qilish yo'llari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Kalit so'zlar: ishsizlik, friksion, tarkibiy, siklik, iqtisodiyot, bandlik.

Ishsizlik - mamlakatdagi mavjud ishchi kuchi bir qismining foydalanilmay qolishini namoyon etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkich. Mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan ishchi kuchining ish bilan ta'minlanmagan bo'limi ishsizlar deyiladi. Namoyon bo'lish xususiyati hamda vujudga kelish sabablariga ko'ra ishsizlik friksion ishsizlik, tarkibiy ishsizlik va davriy ishsizlikka bo'linadi.[1]

Friksion ishsizlik – bu ihtiyoriy ishsizlik bo'lib, bir ishdan boshqasiga o'tish, yashash joyini o'zgartirish hamda boshqa shunga o'xshash holatlar bilan bog'liq. Ishsizlikning bu turi doimiy hisoblanadi.

Strukturaviy ishsizlik majburiy ishsizlik turi bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida kasbiy mahoratning mos kelmasligiga shu bilan birga boshqa shu kabi sabablarga tufayli ishchilarni qisqartirish hisobiga yuzaga keladi. Bu ishsizlik turi ham doimiy hisoblanadi.[2]

Friksion va strukturaviy ishsizlik darajalari birgalikda ishsizlikning tabiiy darajasini ifodalaydi. Ishsizlikning tabiiy darajasi – shunday holatki, bu jarayonda ishsizlar soni bilan bo'sh ishchi o'rinlari bir-biriga mos keladi. Ishsizlikning to'liq yoki tabiiy darajasi ishchi kuchi bozori muvozanatiga erishganda, ya'ni ish izlovchilar soni bo'sh ish o'rinlari soniga teng bo'lganda vujudga keladi. Ishsizlikning tabiiy darajasi qandaydir darajada iqtisodiy jihatdan maqbul hisoblanadi. Chunki «friksion» ishsizlarga mos keluvchi ish o'rinlarini topish, «tarkibiy» ishsizlar uchun ham yangi kasbni o'zlashtirish yoki yangi yashash joyida ish topish uchun ma'lum vaqt kerak bo'ladi. «Ishsizlikning tabiiy darajasi»

tushunchasi ma'lum bir aniqliklar kiritishni lozim bo'lgan ko'rsatkichdir. Bu tushuncha iqtisodiyot har doim ishsizlikni tabiiy darajasida amal qilishi va shu orqali o'zining ishlab chiqarish imkoniyatini ro'yobga chiqarishini ifoda etmaydi. Chunki, ko'pincha ishsizlik darajasi tabiiy darajadan ortiq, ayrim hollarda undan past ham bo'lishi mumkin. Ish vaqtdan ortiqcha ishlash va o'rindoshlik ishlarida band bo'lish natijasida bunday holat kuzatiladi. Ikkinchidan, ishsizlikning tabiiy darajasi o'z - o'zicha doimiy miqdor hisoblanishi shart emas, u tartibdagi o'zgarishlar oqibatida o'zgarib turishi mumkin. Masalan, 60 -yillarda friksion va tarkibiy ishsizlarning muqarrar darajasi ishchi kuchining 4% ni tashkil qildi deb hisoblangan. Boshqacha aytganda, ishchi kuchining 96% band bo'lganda to'liq bandlilikga erishilishi tan olingan. Hozirgi davrda iqtisodchilar ishsizlikning tabiiy darajasi taxminan 5 - 6% ga teng deb hisoblaydilar.

Barcha ishsizlik ko'rinishlarining darajalari birgalikda ishsizlikning haqiqiy darajasini ifodalaydi. Ishsizlik darajasi ishsizlarning ishchi kuchi tarkibidagi foizi sifatida hisoblanadi. Ishchi kuchiga ishlay oladigan va ishlashni hohlagan barcha kishilar kiradi. Ishchi kuchi – ishlovchilar va faol ish izlovchilardan iborat bo'ladi. Boshqacha aytganda, band bo'lganlar va ishsizlar ishchi kuchini tashkil qiladi. Ishsizlarga ish bilan band bo'lmagan hamda faol ish izlayotgan hamda bu haqida tegishli xizmat muassasalariga (mehnat birjalariga) murojaat qilgan kishilar kiradi. Mehnat qilishga layoqatli bo'lib, ishlashni hohlamagan va ish izlashga harakat qilmaganlar ishsizlar tarkibiga kirmaydi. Ishsizlik darajasining oshishi natijasida iqtisodiyot potentsial YaIM hajmini ololmaydi. Shu sababli mamlakat miqyosida ishsizlikni uning tabiiy darajasida saqlash va tartibga solish iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan qanchalik yuqori bo'lsa, YaIM uzilishi shuncha ko'p bo'ladi. Shuning uchun ham potentsial hajmdagi YaIM haqiqiy YaIMdan katta bo'ladi. Ishsizlik darajasi va YaIM uzilishi o'rtasidagi miqdoriy nisbatni ingliz iqtisodchisi Artur Ouken matematik holda isbotlab bergan. Shuning uchun bu qonun, Ouken qonuni deyiladi. Qonunning mohiyati shundan iboratki, agar haqiqiy ishsizlik darajasi ishsizlikning tabiiy darajasidan bir foizga oshib ketsa, milliy iqtisodiyot YaIMni ikki yarim foizga

kamytiradi. Ushbu nisbat ishsizlikning turli darajalaridagi mahsulot yo'qotishlari hajmini aniqlash imkonini beradi. Hozirgi kunda  $\beta$  koeffitsienti deb atalgan bu koeffitsient miqdori 2,5 foizdan 3,5 foiz oralig'ida deb hisoblanadi

Davriy ishsizlik bu iqtisodiyotda pasayish bo'layotgan davrda mavjud bo'lib, bunda ishchi kuchiga talab bo'lsada, ishlab chiqaruvchilar ularni ishga qabul qila olmaydilar va buning natijasida yaratilishi mumkin bo'lgan ma'lum bir mahsulotdan voz kechiladi.

Mamalakatimizda ishsizlik darajasi 2017-yilda 5,8%, 2018-yilda 9,3%, 2019-yilda 9,0%, 2020-yilda 10,5%, 2021-yilda 9,6% va 2022-yilda 8,9% ni tashkil qilgan[3]



**1-rasm. O'zbekiston Respublikasining o'tgan 6 yil ichidagi ishsizlik darajasi, %da**

Ishsizlik darajasi 2018-yilda 2017-yilga nisbatan 3,5%ga oshishi bu statistika agentligidagi ma'lumotlarni analiz qilish va uni ommaga taqdim etish tartibini o'zgarishi bilan bevosita bog'liq. Yangi davrda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar nisbatan aniqroq va shaffofroq taqdim etila boshlandi. 2020-yildagi ishsizlik oshishiga bo'lsa, pandemiya sababchi. Pandemiya davrida ko'plab korxonalar o'z ishchilariga oylik to'lashga qiynalishdi va shu tariqa yoki ishchilar sonini

qisqartirishdi yoki umuman bankrot holatiga kelib qolishdi. Bu o'z navbatida ishsizlik ko'rsatkichi oshishiga olib keldi.

Ishsizlikka quyidagi omillar ta'sir qiladi:

Aholi ortiqchaligi (umuman jahon iqtisodiyoti mehnat ortiqchaligiga ega va aholi sonining keskin o'sishi bunga yordam beradi);

Kasaba uyushmalari harakatlari va aholi ijtimoiy-iqtisodiy faolligi bosimi ostida ish haqi stavkalarini muvozanatli darajadan yuqori o'rnatilishi;

Fan-texnika inqilobi davrida mehnatni kapital tomonidan siqib chiqarilishi;

Mehnat bozorida monopsoniyaning mavjudligi (monopsonist korxonalar mehnatga haq to'lash shartlarini qo'yadilar va bandlik hajmini pasaytiradilar);

Past darajadagi to'lov qobiliyatli talab (tovarlar va xizmatlarga talabning yo'qligi mehnatga bo'lgan talabni pasaytiradi, chunki mehnatga talab hosilaviy xususiyatga ega, buning oqibatida esa ishsizlik yuzaga keladi).

O'zbekistonda ishsizlikni keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biri bu aholining tez suratlarda o'sishi va shu proporsiyada yangi ish o'rinlari yaratilmayotganligidir. Bu muammoning hal qilishning ikki xil yechimi bor; birinchisi va jahonda eng ko'p qo'llaniladigan usul qanday mablag'lar (investitsiya, davlat mablag'lari yoki xususiy shaxslar mablag'lari) hisobidan bo'lishidan qat'iy nazar mamlakat ichkarisida yangi bo'sh ish o'rinlari yaratish yoki ikkinchi usul mehnat migratsiyasini tashkil qilish ya'ni ishchi kuchini eksport qilish. Mamlakatimizda shu yilning o'zida bir qator rivojlangan mamlakatlar xususan Germaniya, Kanada, Yaponiya va Koreya davlatlari bilan shartnomalar imzoladi.[4] Mehnat migratsiyasida diversifikatsiya juda muhim o'rin tutadi. Agarda bir mamlakatda boshqa davlatning ko'plab fuqarolari ishlab turgan bo'lsa bu u davlat iqtisodiyotini qaramligini keltirib chiqaradi. Ishsizlikni kamaytirishning muhimligi shundaki, Ouken qonuniga ko'ra ishsizlik 1%ga kamayishi YaIMni o'rtacha 2,5% o'sishiga olib keladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, hozirgi kunda aholi turmush darajasi yaxshilanishi bevosita ishsizlikning kamayishi bilan bog'liq. Agar mamlakatda ishsizlikni kamaytiradigan bo'lsak o'z-o'zidan YaIM o'sadi, aholi

turmush darajasini yaxshilanadi. Buning uchun Xalqaro tashkilotlar eksportlari yordamida aniq tahlil, statistika va prognozlarga asoslangan holda kelajak uchun rejalar va strategiya ishlab chiqib, uni amalda tadbiq qilish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Mikroiqtisodiyot. Makroiqtisodiyot” fanidan o’quv uslubiy qo’llanma. E.Ergashev, M.Qulmetov, A.Umirov. Toshkent-2021
2. “Mikroiqtisodiyot. Makroiqtisodiyot” fanidan o’quv uslubiy qo’llanma. E.Ergashev, M.Qulmetov, A.Umirov. Toshkent-2021
3. Stat.uz- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti
4. Mehnat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi rasmiy sayti

